

UO‘K 638.575.1

ASALARICHILIKDA INTENSIVE TEXNOLOGIYA

Рахимов Мадаминжон Алижонович – ФерГУ, к.с.х.н., доцент

Ҳайдаров Мавлонжон Маширабович – ФерГУ, д.ф.б.н. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada asalarilarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, asalari oilalarini saqlash, parvarishlash, oziqlantirish va ular mahsuldorligini oshirishning intensiv texnologiyasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Asalari, texnologiya, ozuqa, muhit, mahsulot.

Kirish. Respublikada asalarichilik muhim ahamiyatga ega. Xususan, asalarichilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari soni yil sayin ko‘payib bormoqda. Ularga xizmat ko‘rsatish madaniyati tubdan o‘zgarimoqda, sohani sanoat texnologiyasi asosida rivojlantirish yo‘llari izlanmoqda.

Respublikada tez sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida asalarichilikni tashkil etish va asalari oilasini boqish texnologiyasini modernizatsiyalash va shu yo‘l bilan oila mahsuldorligini oshirish yo‘llarini izlash, bunda asalari oilasida erta bahordan boshlab bajariladigan eng mayda texnologik jarayonlarini modernizatsiyalashgan, yangi texnologiya asosida amalga oshirishdan iboratdir.

Tadqiqot ob‘ekti. Asalarichilik sohasidagi ilg‘or fermer xo‘jaliklaridagi asalari oilalari, mahalliy va horij texnologiyalari haqidagi statistic ma‘lumotlar hamda sohaga oid adabiyotlar.

Tadqiqot natijalari. Respublikamizning tabiiy iqlim sharoiti ham asalari oilasini tezkor texnologiya asosida boqish va asal etishtirish uchun juda qulaydir. Asalarilarni asal yig‘ishga tayyorlash va ishlab chiqarilishiga joriy etish, asalarichilik mahsulotlarini ko‘paytirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish, asalarichilik fermer xo‘jaliklarida amalga oshirilayotgan jarayonlarga mahalliy populyasiyadagi asalarilardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Asalarichilik mahsulotlaridan asal, mum, gulchang, propolis, asalari suti va zahri nihoyatda qimmatbaho ne‘matlar bo‘lib, ular inson salomatligi, tibbiyot sohasi va farmatsevtika sanoati uchun juda noyob xom-ashyodir. Tabiatning ekologik holatini muvofiqlashtirib turishda ham asalarilar o‘rnini boshqa hech qanday jonivorlar bosa olmaydi. Shuningdek, asalari yordamida changlatilgan qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligi ancha yuqori bo‘ladi.

So‘ngi yillarda sohada vujudga kelgan salbiy oqibatlar natijasida asalari oilalari bosh soni kamayib ketdi, bu esa mavjud asalari zotlarining irsiy xususiyatlaridan to‘la foydalanish imkoniyatlarini chegaralab qo‘ydi, asalarilarning rivojlanish qobiliyati

kechika boshladi, qishlovdan chiqishi og'irlashdi, iqlim sharoitimizga va turli kasalliklarga chidamliligi pasaydi.

Asalari oilalarining o'sishi va rivojlanishi uchun to'la qimmatli oziqa bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunda oilalarning imkoniyati katta ahamiyat kasb etadi. Kuchli oilalarda o'stirilgan asalarilar o'zining yuqori mahsuldorligi bilan ajralib turadi, uzoq umr ko'radi va o'rtacha imkoniyatga ega bo'lgan oilalarga nisbatan ularning so'ruvchi xartumchasi uzunroq bo'ladi.

Asalarilarning o'sishi va rivojlanishiga qator omillar, ya'ni mo'tadil harorat va oziqlantirish katta ta'sir etadi, hattoki eng kam oziqlanadigan lichinkalar istemol qilgan oziqalar ham ularning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etadi. Shundan kelib chiqib asalarilarni qo'shimcha oziqlantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda maxsus oziqlantirish joylarida 2-3 kun oralig'ida 3-4 kg dan qo'shimcha oziqalar 2:3 nisbatda beriladi. Buning uchun sof lavlagi yoki qamish shakaridan foydalanilgani afzalroqdir. Iloji boricha, kraxmal, un, osh tuzi, xushbuy moddalar essensiyalarini qo'shmaslik kerak. Shakarli qiyom 35-40⁰S gacha sovutiladi va asalarilarga kechasi beriladi. Oziqa uchun asalni shakarga almashtirish zarur bo'lib qolgan paytlarda bu ish asosiy asal yig'ib olingandan keyin, ya'ni avgustning ikkinchi yarmida amalga oshiriladi. Bu qari asalaridan oqilona foydalanish imkoniyatini beradi va yosh asalarilar esa yaxshi qishlaydi. Shuningdek ona asalarilarning tuxum qo'yishini kuchaytirish uchun ham qo'shimcha oziqalar beriladi. Bunda qo'zg'atadigan qo'shimcha oziqa jumladan, shakar va suv birga - bir nisbatda olinadi. Kuniga 0,4 kgdan yoki har besh kunda 1,5 kgdan beriladi, sutli+shakarli qo'shimcha oziqa, bir litr yangi sut 60⁰S gacha qizdiriladi va unga 1 kg shakar qo'shiladi. Har kuni 0,2-0,3 kgdan berib boriladi. Oziqa beriladigan idish shishali bo'lishi kerak, suyuq asall+pergali qo'shimcha oziqa, bir kg asal, 1 kg perga yarim litr qaynoq suv bilan aralashtiriladi, perganing yumaloqlari yaxshilab eziladi aralashma asalarilarga berishdan avval suzgichdan o'tkazib olinadi, har bir-ikki kun oralig'ida 0,4 kg dan oziqlantiriladi.

Achitqili qo'shimcha oziqa. 50 gr yangi nonvoy achitqisi, 600 gr shakar va 350 gr suv olinib aralashtiriladi va 1 litr qo'shimcha oziqa olinadi. Shakar qaynoq suvga solinadi va qaynaguncha aralashtirib turiladi. Qaynoq sharbat suzgichdan o'tkaziladi. So'ngra 50 gr achitqi va shakar shipasi qoshiq bilan quyuq qaymoq holatiga kelguncha uvalanadi. Tayyor bo'lgan aralashmani sharbat ustiga quyib, aralashtiriladi va qaynatiladi. Oziqa yangi sog'ib olingan sut haroratiga etguncha sovutiladi, ustiga yarim stakan asal qo'shiladi va aralashtiriladi. Oziqa har kuni 150-200 gr dan 1,5-2 oy davomida berib boriladi.

Navbatdagi oziqa qandi. Qandi shakar shipasi va asaldan ikki xil usulda tayyorlanadi. Birinchi retsept. Buning uchun 3,2 kg upa va 400 gr asal kerak bo'ladi. Asal suyuq holga kelguncha eritiladi, faqat qaynab ketmasligi kerak, so'ngra asta-sekin shakar shipasi qo'shiladi va aralashtiriladi. Qishki oziqlantirish uchun

aralashma quyuproq tayyorlanadi. Ikkinchi retsept. 1 litr suv emallangan idishda ilitiladi va iliq suvga 2 kg shakar qo‘shiladi, shundan so‘ng eritma qaynaguncha aralashiriladi. Aralashirish qaynash to‘xtaguncha davom ettiriladi, hosil bo‘lgan ko‘piklar olib turiladi. Qaynab turgan aralashmaning harorati 112⁰S ga etganda unga 0,6 kg suyultirilgan asal qo‘yiladi va harorati 118⁰S ga etkaziladi, so‘ngra aralashmani toza idishga quyiladi va qo‘lni kuydirmaydigan holatgacha (70-80⁰S) sovutiladi. Shundan keyin eritma yog‘och qoshiq bilan quyuoq oq xamir – qandi holatiga kelguncha to‘xtovsiz aralashiriladi. Tayyor oziqa mumlangan quruq yog‘ochdan yasalgan idishga solinib, quruq va salqin joyda saqlanadi.

Shuningdek oqsilli oziqa tayyorlash. Asalarilar uchun asosiy oqsilli oziqa o‘simlik gulchangchisi hisoblanadi. Asalarilar ularni gulchang to‘plagich savatchalarida yig‘ib uyalariga olib keladi va mumkatalarga joylashtiradi, so‘ngra gulchanglarni shibbalab qotiradi va uning ustiga asal qo‘yadi. Sut kislotali bijg‘ish natijasida zahiradagi oqsilli oziqa – perga hosil bo‘ladi. Uning sezilarli miqdori lichinkalarni oziqlantirishga sarflanadi va boquvchi asalarilar tomonidan iste‘mol qilinadi. Perga qishki va bahorgi oziqa zahiralarini to‘plashda kerakli oqsilli oziqa hisoblanadi.

Xulosa. Asalari oilalarini kuchaytirish, ular umrini uzaytirish, mahsuldorligini oshirish uchun asalari oilalarini qo‘shimcha oziqlantirish maqsadga muvofiq. Bunda shunga e‘tibor berish lozimki, asal zahirasi 4 kgdan kam bo‘lmasligi kerak. Bir sutkada bitta asalari o‘zining hayotini saqlash uchun 4,2 mg asal va 0,31 mg perga sarflaydi. 1 kg yosh asalarni tarbiyalash uchun 1140 grammga yaqin asal va 900 grammga yaqin perga kerak bo‘ladi. Natijada asalarilar bir marotaba uchishida kuchli sharbat yig‘ishda 50 mg, o‘rtacha sharbat yig‘ishda 30-45 mg, kuchsiz sharbat yig‘ishda 15-20 mg sharbat to‘plash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alijonovich R. M., Madumarovna N. M. QISHLOQ XO‘JALIGI BIOTEKNOLOGIYASI //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 6. – С. 315-317.

2. Рахимов М. А., Азизов Р. О. Ў. ГЕНЕТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 6. – С. 600-603.

3. Raximov M., Nurmatova M. МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ И БИОХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ КРОВИ БЫЧКОВ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D8. – С. 12-16.

4. Рахимов М. РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕНЕТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ ПРИ ВЫРАЩИВАНИИ СКОТА НА МЯСА //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – С. 158-161.

5. Alijonovich R. M. et al. EFFICIENT BEEF PRODUCTION TECHNOLOGY //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities.

– 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 259-263.

6. Raximov M., Saminov A. Aholi tomorqa xo ‘jaliklarida va himoyalangan joylarda sabzavot yetishtirishning jadal texnologiyasi //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D6. – С. 231-236.

7. Комилов, Р., Рахимов, М., & Хайдарова, М. (2023). ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ШИМОЛИЙ БЎЗ ТУПРОҚЛАРНИНГ АГРОКИМЁВИЙ ВА АГРОФИЗИКАВИЙ ХОССАЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 38(2), 118-122.

8. Хайдаров, М., Комилов, Р., Рахимов, М., & Хайдарова, М. (2023). АГРОФИЗИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СЕРОЗЕМОВ СЕВЕРА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. *Journal of new century innovations*, 38(2), 128-130.

9. Хайдаров, М., Комилов, Р., Рахимов, М., & Хайдарова, М. (2023). АМИНОКИСЛОТНЫЙ СОСТАВ ЦЕЛИННЫХ И ОРОШАЕМЫХ СЕРОЗЕМОВ СЕВЕРА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. *Journal of new century innovations*, 38(2), 123-127.

10. Рахимов М., Абдурасулов Х. Интенсивная технология откорма молодняка привозного скота //Scientific journal of the Fergana State University. – 2018. – №. 6. – С. 42-42.

11. Alijonovich, Rakhimov Madaminjon, and Javxarov Oybek Zulfikharovich. "Organization of full-value feeding of dairy cows in farm." *Gospodarka i Innowacje*. 24 (2022): 840-843.

12. Alijonovich, Rakhimov Madaminjon, and Javxarov Oybek Zulfikharovich. "Organization of full-value feeding of dairy cows in farm." *Gospodarka i Innowacje*. 24 (2022): 840-843.

13. Рахимов М. А. Резервы повышения мясной продуктивности бычков крупного рогатого скота при откорме //Агро илм. – С. 66-68.

14. Рахимов М. А. Резервы повышения мясной продуктивности бычков крупного рогатого скота при откорме //Агро илм. – С. 66-68.

15. Raximov M. мясная продуктивность бычков привозного скота //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D6. – С. 189-192.

16. Рахимов М. А. Мясная продуктивность и качество мяса бычков черно-пестрой, швицкой пород и помесей черно-пестрой х красной эстон-ской при интенсивной технологии производства говядины//Авто-реф. дисс. на соиск. учен. степ. канд. с.-х. наук.-Новосибирск, 1989.-20 с. – 1989.

17. Raximov, M., Muysinov, X., Abdullayeva, G., & Komiljonov, A. (2021, July). Peculiarities of the influence of climatic conditions on the morphological and biochemical composition of the blood of bulls of transported cattle. In *Конференции*.

18. Рахимов М. А. Влияние технологии кормления на рост и развитие бычков, выращиваемых на мясо //Жур. Агро илм, Ташкент. – 2021. – Т. 5. – С. 65.

19. Рахимов М., Муйдинов Х., Комилжонов А. Интенсивная технология выращивания телок привозного скота //Scientific journal of the Fergana State University. – 2021. – №. 2. – С. 26-26.

20. Комилов Р. М., Рахимов М. А., Хайдаров М. М. АНДИЖОН ВИЛОЯТИНИНГ ОС ТУСЛИ БЎЗ ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА АНДИЖОН-

35 ВА ЎЗПИТИ-201 ҒЎЗА НАВЛАРИНИ КЎЧАТ ҚАЛИНЛИГИГА БОҒЛИҚ ҲОЛДА ЧИЛПИШ ЎТКАЗИШНИНГ ПАХТА ҲОСИЛИГА ВА ЧИГИТ МОЙДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ //denmark" theoretical and practical foundations of scientific progress in modern society". – 2023. – Т. 14. – №. 1.

21. Рахимов М. А., Турдалиев А. Т., Мадрахимов Ш. Н. ПРОИЗВОДСТВО ПОЛНОЦЕННОГО МЯСА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПОРОДНЫХ РЕСУРСОВ //ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ ПРОДУКТИВНОГО И НЕПРОДУКТИВНОГО ЖИВОТНОВОДСТВА. – 2022. – С. 184-189.

22. Рахимов М. А., Юнусов М., Хабибуллаев Ф. Технология комления привозного скота //Журн. Агро илм Тошкент. – 2018. – №. 2. – С. 52.

23. Alijonovich R. M., Olimjon o'g'li A. R. QORAMOLLARNING GIPODERMATOZ KASALLIGI VA PROFILAKTIKASI //Proceedings of International Educators Conference. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 49-52.

24. Рахимов М. РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕНЕТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ ПРИ ВЫРАЩИВАНИИ СКОТА НА МЯСА //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – С. 158-161.

24. Рахимов М. А., Шерматов М., Хабибуллаев Ф. Технологии рационального использования кормов //Сельское хозяйство Узбекистана. – 2013. – №. 7. – С. 33-34.

25. Рахимов М. А., Муйдинов Х. Д. Эффективность применения минеральных подкормок в рационе бычков привозного скота //Фергана, журнал Научный вестник ФерГУ. – 2022. – Т. 1.

26. Рахимов М. А. Интенсификация производства говядины //Журн. Агро илм Тошкент. – 2022. – №. 3. – С. 50-51.

27. Рахимов М. А., Юнусов М., Хабибуллаев Ф. Интенсивная технология повышения молочной продуктивности коров в фермерских хозяйствах //Сельское хозяйство Узбекистана. – 2015. – №. 1. – С. 36-37.

28.Рахимов М. А., Юнусов М., Хабибуллаев Ф. Влияние разного соотношения зерносенажа и кукурузного силоса на переваримости питательных веществ в рационе бычков привозного скота //Жур. Агро илм, Ташкент. – 2017. – Т. 1. – С. 40.. 1. – С. 40.

29. Komilov, R., Naydarov, M., & Usmonov, A. (2022). ҒЎЗА НАВЛАРИНИНГ КЎЧАТ ҚАЛИНЛИГИГА БОҒЛИҚ ҲОЛДА ЧИЛПИШ ЎТКАЗИШ МУДДАТЛАРИНИ ЧИГИТ МОЙДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ. *Science and innovation*, 1(D6), 371-375.

30. Mashrabovich, H. M., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). MELISSA OFFICINALIS L O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA YETISHTIRISH USULI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(18), 18-20.

31. Naydarov, M., Yusupova, Z., Sayramov, F., & Rahmonova, O. (2022). Lamiaceae oila vakillarining biz bilgan va bilmagan dorivorlik xususiyatlari. *Science and innovation*, 1(D7), 89-94.

32. Хайдаров, М. М. (2022, November). ЛАБГУЛДОШЛАР ОИЛА ВАКИЛЛАРИНИНГ ЭФИР МОЙИГА БОЙ БЎЛГАН БАЗИ ТУРЛАРИНИНГ

МОРФОЛОГИЯСИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 8, pp. 16-20).

33. Haydarov, M., Sayramov, B., Rahmonova, O., & Eshnorova, J. (2022). TARKIBIDA MONOSIKLIK MONOTERPENLAR BO 'LGAN EFIR MOYLAR VA DORIVOR O 'SIMLIKLAR. *Science and innovation*, 1(A7), 337-343.

34. Turdaliyev, A., Haydarov, M., Siddiqova, G., & Sodiqova, M. (2022). DORIVOR VALERIANA O 'SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEXNNOLOGIYASI. *Science and innovation*, 1(D8), 26-30.

35. Turdaliyev, A., Haydarov, M., Ne'Matova, D., & Aliyeva, M. (2022). VALERIANA OFFICINALIS LO 'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 1(D7), 468-472.

36. Haydarov, M., & Sayramov, F. (2022). ЛАБГУЛДОШЛАР ОИЛА ВАКИЛЛАРИНИНГ ТИББИЁТДА ҚЎЛАНИЛИШИ ВА КИМЁВИЙ ТАРКИБИ. *Science and innovation*, 1(D8), 262-270.

37. Haydarov, M., & Usmonov, A. (2022). DORIVOR VALERIANA OFFICINALIS L. O 'SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI VA TARQALISH AREALLARI. *Science and innovation*, 1(D8), 303-308.

38. Хайдаров, М. М. (2022). МОРФОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ СЕМЕЙСТВА LAMIACEAE, БОГАТЫХ ЭФИРНЫМ МАСЛОМ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 834-838.

39. Haydarov, M., Mamanazarov, B., Xamroqulov, D., & Nasriddinova, D. (2022). BIOMORPHOLOGY OF VALERIANA OFFICINALIS L. *Science and Innovation*, 1(8), 393-399.

40. Mashrabovich, H. M., & Ogli, O. K. A. I. (2023). MAHALLIY TOPINAMBURNING (Helianthus tuberosus) DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 6), 159-162.

39. Haydarov, M., & Sayramov, F. (2022). MEDICINAL USE AND CHEMICAL COMPOSITION OF MEMBERS OF THE LABGULODASH FAMILY. *Science and Innovation*, 1(8), 262-270.

41. Turdaliyev, A., Haydarov, M., Ne'Matova, D., & Aliyeva, M. (2022). VALERIANA OFFICINALIS LO 'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 1(D7), 468-472.